



O‘ZBEK ARUZI GENEZESI VA TARAQQIYOT OMILLARI

O‘tkir Yo‘ldoshev,
ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207229>

Annotatsiya. Aruz vazniga munosabat bugungi kun she‘riyatining bahsli mavzuslaridan biri hisoblanadi. Maqolada aruz vaznining kelib chiqishi, asrlar davomida qo‘llanilib kelinishi bo‘yicha mulohazalar berilgan. Qadimgi barmoq vazni bilan aruz vazni muqoyasa qilingan.

Kalit so‘zlar: birinchi she‘r, Ayyub bitiklari, saj‘, rajaz, komil, vofir, ramal, Devonu lug‘atit turk, ilmlar uchligi, 11 bo‘g‘inli, xushovoz.

Bir qancha nazariy ma‘lumotlarda she‘r haqida fikr yuritilsa, birinchi she‘r Odam Ato davrida paydo bo‘lgan deb qaraladi. Ya‘ni Odam Ato o‘g‘li Hobil o‘lganda unga atab marsiya aytgan ekan. Ammo uni qaysi til yoki vaznda yozilganligi noma‘lum. Dunyodagi qadimgi til oilalarini Nuhning o‘g‘illari Yofas, Som, Xomga bog‘liq holda uch guruhga bo‘lsak, she‘riyatning dastlab qaysida vujudga kelgani va bizgacha yetib kelganligi bo‘yicha turli mulohazalar mavjud. Eng qadimgi she‘riyat namunalarini yunonlar miloddan avvalgi IX asrga oid Homer qo‘shiqlarida deb bilsa, Sanskrit tilidagi brahman vedalari undan eskiroq – miloddan avvalgi XII asrga tegishlidir. Qadimgi misrliklarning bizgacha yetib kelgan mashhur qo‘shiqlari esa undan ham qadimiyroq – miloddan avvalgi XIV asrga oiddir. Mashhur tarixiy asarlar muallifi Jurji Zaydon arab she‘rlarini dunyodagi eng qadimgi she‘riyat namunalari deb ko‘rsatadi. Olim “Ayyub bitiklari”ni miloddan avvalgi XXIII asrga oidligini, undagi asl arabiy bo‘lgan qo‘shiqlarni eng qadimgi she‘riy asar deb qaraydi. Professor E.Talabov arab tilidagi eng qadimgi yodgorlik IV asrga oid (milodiy 323-yil) “An-Nimar” qabr toshi deb ko‘rsatib, “Ayyub bitiklari”ning XXIII asrga oid variantlari topilmaganligini va J.Zaydon fikri mulohazali ekanligini aytib o‘tadi [9, 16].

Deyarli barcha tillarda qadimgi she‘rlar epik turga mansub deb qaraladi. Yunon adabiyotidagi mifologiya gekzometr vaznida yozilgan bo‘lsa, arab mifologiyasining o‘zini topish qiyin. Arab she‘riyati mutaxassisi E.Talabov qadimgi arablarda ham mifologiyaning mavjud bo‘lganligi, ammo islom nafratli qaragani uchun, qiziqish susaygach, yo‘qolib ketganligini aytadi [9, 17]. Johiliya davrining barcha yodgorliklari islomdan keyin yozuvda qayd qilinganligini inobatga olsak, qadimgi arab she‘riyati bo‘yicha J.Zaydonning fikrlarida qo‘shilishimiz mumkin.



Hech bir she'riy shakl bugungi kundagi murakkab holatiga o'z-o'zidan kelib qolmagan. Tarixiy va adabiy rivojlanish natijasida taraqqiy etgan. Ayrim olimlar she'r dastlab saj' – nasrdagi qofiyadan paydo bo'lgan desa, ayrimlari maqol, matallar bunga asos bo'lgan deb qaraydi. Ayrim aruzshunoslar esa she'rboshini qo'shiq deb ko'rsatadilar. Aruzshunos olim D.Yusupova arab she'riyatida sajdagi she'rlar Rajaz bahrini hosil qilishini, maqol va matallarda Komil va Vofir bahrlar yetakchi bo'lishini, qo'shiqlarda esa Ramal vazni yetakchilik qilishini aytadi [10, 117].

Aruz vazni qonun-qoidalari Xalil ibn Ahmad al-Farahidiy (715/719 – 786/791) tomonidan VII – VIII asrlardagi arab xalq adabiyoti orasidagi she'riyat asosida paydo bo'lgan bo'lsa, bu holat o'sha vaqtning o'zida she'riyatning yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Xalil ibn Ahmad tomonidan VIII asrda ishlab chiqilgan aruz nazariyasi qoidalari arab, fors va turk adabiyotida juz'iy o'zgarishlar bilan bugungi kungacha qo'llanilib kelinmoqda.

Aytish mumkinki, aruz vazni turkiy she'riyatga islom ta'siri ostida kirib keldi va rivojlandi. Az-Zamaxshariy, Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Javhariy kabi turkiy olimlar arab aruzi rivojiga hissa qo'shdilar. Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida aruz birmuncha turkiylashdi. Jumladan, aruzga doir “Mezon ul-avzon”, “Muxtasar” asarlarida arab aruzi asosida turkiy aruz isloh qilindi. Arab aruzning turkiy tilda mos jihatlari ochiqlandi. Turkiy adabiyotda eng ko'p qo'llangan vazn sifatida ramal, hazaj, rajaz, mutaqorib bahrlarini ko'rsatish mumkin.

Manbalarda ko'rsatilishicha, turkiy she'riyatda aruz vaznidan oldin barmoq vazni yetakchilik qilgan. Buni qadimgi turkiy adabiyot tarixidan xabar beruvchi “Avesto”, O'rxun-Enasoy bitiklari, “Devonu lug'atit turk” asarlaridan bilishimiz mumkin. E'tibor qilinsa, turkiy adabiyotda aruz vaznining keng istifoda etilgan vaznlari mumtoz manbalarda keltirilgan she'r vaznlariga yaqin. Jumladan, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asarida keltirilgan quyidagi she'rni rajaz bahriga tushirish mumkin.

Jag'in taba titro' baqip bo'qdang bila

Mustafilun / mustafilun / mustafilun

Og'rap qali kelsa senga qarshu so'la [5, 287].

Mustaf'ilun / mustaf'ilun / mustaf'ilun

(Ma'nosi: *Dushmanlaringni diqqat bilan kuzat, bek nayzasini bilagingda tut. Bekka qarshi dushman kelsa, unga qarshi jang qil*).



Kuzatishlarimiz natijasida “Devonu lug‘atit turk” asarda keltirilgan 7 baytli she‘rlarning aksariyati *mustaf’ilun/fauvlun* qolipiga tushishini guvohi bo‘ldik.

Kelsä urna tÿshÿrgil

Tÿnsin anig aruqluq

Arpa saman yag‘utg‘il

Bulsin atı yaruqluq [6, 35].

(*Ma‘nosi: Senikiga mehmon kelsa, uni qo‘ndir, u hordiq chiqarib dam olsin, otiga arpa, somon sol, oti yorug‘ik rohatidan bahra olsin*).

Mumtoz adabiyotimizda aruz vaznida yozilgan dastlabki asar sifatida qaraladigan “Qutadg‘u bilig” asarida ham pand-nasihat ruhini 11 bo‘g‘inli bo‘lgan shohnoma vazni orqali namoyon etgan. Negaki, turkiy xalqlar pand-nasihatni ifodalovchi she‘rlari ko‘proq 11 bo‘g‘inda aytadi. Xalq dostonlariga e‘tibor bersak, “Ravshan” dostonida Tersakning og‘a-inilariga qarab, Hasan marddan xabar berib turgan lavhasi 11 bo‘g‘inli she‘rdan iborat.

Ot chopilar baland tog‘ning pastida,

Quloq soling gapimning payvastiga,

Shu ot kepti Qoraxonning qasdida,

Endi maydon bek Ravshanning ustida.

Ramali musammani mahzuf (*foilotun/foilotun/foilotun/foilun*) vazni 11 bo‘g‘inli bo‘lib, turkiy she‘riyatda eng ko‘p qo‘llangan vazn hisoblanadi. Hatto Husayn Boyqaro tartib bergan devonni Bobur boshdan-oyoq shu shu vaznda ekanligini aytadi [2, 240].

Ramal bahri – arabcha “tuyaning bir maromda yo‘rtishi” – asosan, o‘y-fikrli ohangga mos. Hajaz esa – arabcha “xushovoz”, “ovozni yoqimli qilish” ma‘nolarini berib, bunda sho‘x kuy-qo‘shiqlarimiz mujassam. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida ham mustazod janriga ta‘rif berar ekan, xalq orasida bir kuy (surud) borligini xalq uni “mustazod” deyishi, vazni esa hazaji musammamani axrabi makfufi mahzufi mustazod (*maf‘uvlu / mafoiyly / mafoiyly / fauvun // maf‘uvlu / fauylun*) bo‘lishini aytadi [1, 577]. Shunday ekan, aruz vazni qoidalariga moyillik, o‘xshashlik bizning xalq adabiyotimizda ham, islomdan avvalgi she‘riyat namunalarda ham o‘z aksini topgan.

Aruzshunoslikning bu qadar rivojlanishi, albatta, islom omili bilan bog‘liqdir. Chunki islom dinidagi tarixiy sulolalarning kelib-ketishi va ularning tarix sahnasida o‘rnashib qolishga intilishi hukmdorlarning madaniyat, adabiyot, san‘at va she‘riyatga bo‘lgan ehtiyojini bevosita oshirgan. Aruz vazni hukmdor va olimlarning



ilm olish va tarbiyadagi o‘rganishi kerak bo‘lgan an‘analari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Aruz ilmidan xabardor bo‘lish ma‘lum darajada o‘z davrinig ma‘naviy va ma‘rifiy mezonlari tarkibiga kiritilgan.

XX asrga kelib, hokimiyat boshqa din vakillari tarkibiga o‘tgach, ko‘pgina sohalar qatori adabiyot, san‘at va madaniyatga qarash o‘zgardi. Bu, ayniqsa, 1917-yil fevral inqilobidan keyin yanada avj oldi. Bolsheviklarning va‘dalariga ishongan turkiylar Milliy davlat qurish bo‘yicha harakatga tushdilar. Bu jarayonda bir qancha bo‘linishlar yuz berdi. Ulardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy boshliq guruh shariat qoidalari asosida davlat qurmoqchi bo‘lsalar, ikkinchisi Abdurauf Fitrat boshliq guruhda esa “...butun dunyodan qat‘iy aloqa qilg‘an, na Sharqdan, na G‘arbdan hech bir narsa olmagan yop-yolg‘iz bir “o‘zbek madaniyati”ni qurmoq uchun kurash”ni [3, 37] afzal ko‘radilar. Bunday siyosiy o‘yinlar, albatta, adabiyotda o‘z aksini topdi. Jumladan, Fitratning 1919-yilda e‘lon qilingan “Tilimiz”, “She‘r va shoirliq” maqolalari mazkur siyosiy jarayonning ta‘siri edi. 1908 – 1913-yillarda Turkiyada o‘qigan, o‘sha paytdagi turk inqilobi faol ishtirokchilaridan bo‘lgan Fitratning qarashlarida panturkizim g‘oyalari asosidagi turkiy millatni yaratish bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas. Natijada Fitrat qarashlarida turk milliy vaznini yaratishga urinish jarayonida she‘rga munosabat, xususan, yillar davomida she‘riyatning asosiy vazni bo‘lgan aruz vazniga munosabat ham o‘zgardi. Undan vos kechishga chaqirildi. 1936-yildagi “Aruz haqida”gi maqolasi orqali o‘z fikrlarini tahlil qilib, noto‘g‘ri so‘zlaganlarini ta‘kidlasa-da, adabiyot olamida “aruz kerakmi, yo‘qmi”, degan bahslar avj olib ketdi. Fitrat zamondoshlaridan Laziz Azizzoda bu to‘g‘rida shunday fikrlarni bildiradi: “Cho‘lpon til va uslubni birlashtirdi. Lekin aruz vaznini yiqilishida Fitratning xizmati jiddiy bo‘ldi” [7].

Arab tilida nazm va she‘r tushunchalari ikki xil fikrni ifodalaydi. Ayrim aruzshunoslar she‘rni vaznga tushirilgan, qofiyalangan nutq sifatida ko‘rsatadilar. Bu shubhasiz nazmning ta‘rifi bo‘ladi. Tajribasiz ko‘z nazm va she‘r orasidagi farqni topishi qiyin. Fitrat ta‘rifi bilan aytganda she‘r “... yurakimizda hosil bo‘lgan ... sezgilarni hunarlicha so‘zlar bilan boshqalarga o‘tkarish”dir. “Kishining yurakgi qancha sezag‘on (mutaxassis) esa, shuncha yaxshi shoir bo‘ladir” [4, 7]. She‘r qalblarimizni o‘ynatishi, ta‘sir qilishi lozim.

Erkin Vohidov “Aruz haqida” maqolasida aruz to‘g‘risidagi ikki toifa – aruz raqiblari va tarafdorlari haqida so‘zlab shunday fikrlarni bildiradi: “Aruz kerak, bizning zamonimizga xizmat qilishi mumkin deganlar klassik va zamonaviy g‘azallarning eng yaxshi namunalariga suyananlar. Aksincha, aruzning raqiblari esa



arzon va jo‘n g‘azallarni, aksari, qo‘shiq qilib aytilayotgan zamonaviy aruzning turfahol namunalarini misol qilib ko‘rsatganlar” [8]. Shoir jo‘n, va aruz vazni imkoniyatlaridan foydalanilmagan, his-tuyg‘udan yiroq she‘rlarni qoralaydi va quyidagi misolni keltiradi:

Yaxshilikni odat et, qilma yomonlik hech qachon:

Yaxshilik yaxshi erur, lekin yomonlikdir yomon.

She‘rda vazn va qofiya o‘z o‘rnida, ammo badiiy mahorat masalasini uchratmaymiz. Shoir bunday she‘rlar ko‘payib borayotganligi, she‘rning darajasi tushib ketayotganligan noliydi va shu toifadagi she‘rlarni o‘quvchilar aruzga qarshi turishini aytadi.

She‘r mumtoz adabiyotimizda ilmlar uchligi doirasida o‘rganilgan. Bunga ilmi aruz, ilmi qofiya va ilmi badi‘ kiradi. Ilmi aruz – she‘rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidlari haqida bahs yurituvchi soha; ilmi qofiya – qofiya qonuniyatlari va turlari haqida ma‘lumot beruvchi soha; ilmi badi‘ – nutqqa bezak beruvchi san‘atlar, ularning o‘ziga xos jihatlari, fikrni go‘zal va mazmunli ifodalash usullarini o‘rganuvchi soha hisoblanib, shoirlikka da‘vo qiluvchilar ushbu bosqichlarni mukammal egallasa, xoh barmoq, xoh erkin, xoh aruz vaznida go‘zal san‘at namunalarini yatarishi mumkin. Aruz adabiyotning, umuman san‘atning hamma turlari kabi talant va mahorat, teran xayol va ehtiros talab qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, aruz vazni tarixiy jarayonda arab xalqlari tarixiga borib taqalsa-da, turkiy tilda ularning barchasidan foydalanilmadi, balki turkiy tilga xos jihatlari uchun foydalanildi, nazariy jihatlari yaratildi.

Hamma davrlarda ham she‘riyatga talab yuqori bo‘lgani sababli vaznli, qofiyali va badiiy jihatdan mukammal bo‘lgan she‘rlargina yuksak baholangan. Turkiy she‘riyatga aruz vazni kecha kirib kelgani yo‘q, majburlab singdirilmadi ham. Avval boshda qiyinchiliklar bo‘lsa-da, keyinchalik salkam 10 asr davomida milliy vaznga aylanib ketdi. Aruz milliylashdi. Dunyo tamadduniga hissa qo‘shgan buyuk bobokalonlarimiz Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi olimlar she‘r san‘ati, aruz ilmi bo‘yicha asarlar yaratdi. Shunday ekan, salkam 10 asrdan buyon foydalanib kelingan aruz vazni bugungi kunda ham o‘rganilishga muhtoj va samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. To‘la sarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Mezon ul-avzon. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. 684 bet.
2. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. 528 bet.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



3. Фитрат. Адабиёт қоидалари / Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Toshkent: Маънавият, 2006. 336 бет.
4. Фитрат. Шеър ва шоирлик / Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Toshkent: Маънавият, 2006. 336 бет.
5. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғатит турк) 3 томлик. 3-том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталибов. Тошкент: Фан, 1963. -463 бет.

